# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI OQDARYO TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 21 - iyul 136-7-92-Q/22 Oqdaryo tumani hokimligi

## Tuman hududidagi 4K 536 “M37 avtomobil yo‘li (6 km)-Po‘latdarxon q.-Tut q.-Nush q.” avtomobil yo‘lining 4 kilometridagi Oqdaryo daryosi ustidan o‘tgan ko‘prikda yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19-fevraldagi “Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko‘chishi va er ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-585-sonli hamda 2018-yil 27-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3953-sonli qarorlari, Samarqand avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasining 2022-yil 20-iyuldagi 01-10/809-sonli xatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risda”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN:**

1. Samarqand avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasining tuman hududidagi 4K536 “M37 avtomobil yo‘li (6 km)-Po‘latdarxon q.-Tut q.-Nush q.” avtomobil yo‘lining 4 kilometridagi Oqdaryo daryosi ustidan o‘tgan ko‘prikda yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlashga “Ravonyo‘lloyiha” MCHJ, qurilish montaj ishlarini amalga oshirish uchun Oqdaryo tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi pudratchi etib belgilash haqidagi takliflari ma’qullansin.

2. 4K536 “M37 avtomobil yo‘li (6 km)-Po‘latdarxon q.-Tut q.-Nush q.” avtomobil yo‘lining 4 kilometridagi avariya holatiga kelib qolgan ko‘prik

viloyatning shimoliy qismidagi tumanlarning Samarqand shahari bilan bog‘laydigan asosiy ko‘priklaridan biri ekanligini hamda Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 2022-yilda Samarqand shahrida yuqori saviyda o‘tishini ta’minlash maqsadida, istisno tariqasida mazkur ko‘prikda sodir bo‘lgan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish uchun qurilish montaj ishlarini loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bilan bir vaqtda amalga oshirishga ruxsat berilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi o‘rnatilgan tartibda 4K 536 “M37 avtomobil yo‘li (6 km)-Po‘latdarxon q.-Tut q.-Nush q.” avtomobil yo‘lining 4 kilometridagi Oqdaryo daryosi ustidan o‘tgan ko‘prikda ro‘y bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish ishlarini manzilli ro‘yxatini shakllantirib, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi hamda Moliya Vazirligiga taqdim etilishini ta’minlasin.

4. “Ravonyo‘lloyiha”MCHJ direktori zudlik bilan ushbu ob’ektning loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlab, Davlat ekspertiza xulosalarini olib, buyurtmachiga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

5. Oqdaryo tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi qurilish montaj ishlarini sifatli qilib bajarilishini ta’minlasin hamda tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish ishlarini qisqa muddatlarda sifatli qilib bajarilishini, ajratilgan mablag‘ni maqsadli ravishda ishlatilishini nazorat qilib borish Samarqand avtomobil yo‘llari hududiy bosh boshqarmasidan so‘ralsin hamda belgilangan tashkilotlar rahbarlariga 2022-yilda manzilli ro‘yxatga kiritilgan obeyktlarda yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish ishlari tugallangan obeyktlarni belgilangan tartibda viloyat hokimligi Toshqinga qarshi ishchi hay’atiga topshirish yuklatilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Oqdaryo tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

**Oqdaryo tuman hokimi** **Qudratov Sh.**